

GENDER TENGLIKNING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA UNING MAZMUNI

Axmatova Guli Xurram qizi

Iqtisodiyot va pedagogika unversiteti NTM o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada gender tushunchasi, jins tushunchasi bilan aloqasi, gender tenglikning kelib chiqishi tarixi o'rganilgan. Mamlakatimizda gender tenglik masalasi qonun normativ hujjatlari orqali asoslanganligi ko'rib chiqilgan.

Maqolada milliy etnik kelib chiqish, farzand tarbiyasi va milliy urf-odatlardagi o'zaro o'xshashlik va farqlar mohiyati, jamiyatda ayollarning o'rni mustahkamligi ochib berildi.

Kalit so'zlar: gender, jins, gender tenglik, funksiya, muskulinoid, feminoid.

Gender psixologiyasi bo'yicha bir qancha olimlar o'z ilmiy izlanishlarini olib borishgan. Z. Freyd psixoanaliz orqali ong va ongsizlik tushunchalarini ochib berishda asosiy rol ni gender orqali ko'rsatib o'tgan. G.Duran, K.Yung, kabi olimlarning tadqiqotlarida ham gender tengligini o'z qarashlari va g'oyalari orqali ochib berishgan. Ularning tadqiqotlarida "jins va ruh", "muskulinoid", "feminoid" tushunchalari ochib berilgan. Ko'pgina olimlarning qarashlarida ayol va erkaklarning jamiyatda va oilada teng huquqga ega bo'lishi kabilarni o'rganilganligini ko'rishimiz mumkin.

Gender so'zining ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak gender – inglizcha "gender" – "zot" "jins" ma'nolarini anglatadi¹. Jins tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: jins erkaklar va ayollar o'rtasidagi bir-biridan farq qiluvchi biologik belgilar bo'lib, anatomik va fiziologik, ya'ni individning biologik jinsga – ayol yoki erkak jinsiga mansubligini bildiradigan ma'lum biologik belgilar yig'indisidir. "Erkaklar va ayollar o'rtasidagi jiddiy bo'lmagan farqlar ularning biologik xususiyatlariga taalluqlidir. Biroq erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik farqlardan tashqari, o'z tabiatiga ko'ra biologik sabablarga asoslanuvchi ko'plab farqlar bor, ya'ni ijtimoiy rollar, faoliyat shakllarining bo'linishi, xatti-harakat va individlarning psixologik tavsiflarida ko'plab farqlar mavjud"².

Psixologiya sohasida gender va jins tushunchalarini farqlashda genderni va jinsga alohida ta'rif beriladi. Shunga ko'ra "jins" erkak va ayollikni biologik jihatdan, xulq-

¹ Э.Гидденс Социология. – Т. «Шарк». 2002., 185-бет.

² Ahmedov Botirjon Ravshanovich "O'zbek tilida gender tadqiqi". Andijon-2012 6-b. <https://fayllar.org/magistr-darajasini-olish-uchun-tayyorlangan-dissertatsiya-ilmi.htm>

atvor jihatdan, reproduktiv salomatligi jihatidan mavjud bo'lgan belgi xususiyatlari orqali farqlanishidir.

“Gender” tushunchasi hozirgi vaqtda psixologiya sohasining murakkab yo‘nalishlarida o‘rganilishni talab etadi. “Gender”ning toifalari orasida ajralib turadigan asosiy turlari mavjud bo‘lib, bularga “gender farqlash”, “gender texnologiyasi”, “gender rollari” kabi tushunchalar kiradi

“Gender farqlash” jarayoni prenatal davrda biologik aniqlangan belgisidan boshlanadi. Jon Mann, Anki Erxardlar tomonidan gender farqlashning sakkiz bosqichi ajratib ko‘rsatilgan. Genetik xromasoma bosqichi, gonodal ya‘ni haqiqiy jinsning shakllanishi bosqichi, gameta bosqichi ya‘ni jinsiy hujayraning shakllanish bosqichi, gormonlarning ishlab chiqarilishi bosqichi, erkak va ayolning tashqi va ichki belgilarining rivojlanishi, pasport bosqichi, ta‘lim bosqichi, gender bosqichi.

“Gender rollar” ayol va erkak uchun jamiyatdagi xatti-harakatlar to‘plamidan iborat bo‘lgan tur. Gender rollar ijtimoiy hayotda xulq-atvori, odobi, kiyinishi, tashqi ko‘rinishi, nutqida namoyon bo‘ladi.

“Gender tushunchasi 1970-yillarning boshlarida “femenistik”(ayollik) yo‘nalish va g‘oyalarning rivojlanishi tufayli tarqalishi jadallashdi. “Gender” va “jins” tushunchalari orasidagi farq “biologik taqdir sifatida” haqidagi oddiy g‘oyalarni shubha ostiga qo‘yishga va shu bilan ilgari bo‘lmagan tematik sohalarni o‘rganib, ijtimoiy va gumanitar fanlarning ufqlarini sezilarli darajada kengaytirishga imkon berdi va ilmiy qiziqish mavzusiga aylandi”¹.

Gender nazariyasining rivojlanishi va vujudga kelishida ayollar va qizlarni teng xuquqlilikka asoslangan jamiyatning teng a‘zosi bo‘lish uchun G‘arb ayollarining harakati sababli gender nazariyalari paydo bo‘la boshladi. Bu jarayonda AQSH, Yevropa davlatlarining ayollar huquqlarini himoya qilishini boshlashi va xotin qizlarga saylov huquqining berilishi bilan aloqadordir.

“Gender” tushunchasini fanga birinchi marta psixoanalitik R. Stoller 1968-yilda kiritilgan. R.Stoller va D.Moni birgalikda biologik jins va ijtimoiy jins tushunchalarning farqlarni fanga ma‘lum qilishgan. R. Stollerni boshqa olimlardan farqli ravishda “jinsiy aloqani” biologik deb, “genderni” esa ijtimoiy tushancha deb kiritgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng ayollarga e‘tiborli bo‘lish, ularni sog‘ligi, ijtimoiy himoyasiga e‘tibor qaratildi. Shu munosabat bilan 1998-yil “Oila yili”, 1999-yil “Ayollar yili”, 2001-yil “Onalar va bolalar” yili, 2016-yil “Sog‘lom bola va sog‘lom ona” yili deb e‘lon qilinishi fikrimizi isboti sifatida keltirishimiz mumkin.

¹ Здравомыслова О. „Гендерные исследования как опыт публичной социологии в России» (ru). Полит.Ру (24-sentabr 2009-yil). 26-aprel 2016-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 9-mart 2016-yil.

2023-yil 30 aprelda umum xalq ovoz berishi orqali qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham bir qancha o‘zgartirishlar kiritildi. Konstitutsiyasining XIV bobi “Oila, bolalar, yoshlar” deb nomlanib 76-80 – moddalari oilani himoyisi, ota- ona, farzandlar va ularning muhofazasi, huquq va majburiyati bayoni keltirilgan.

Keyingi yillarda jamiyatda jinslarning o‘zaro teng nisbatini yaratish va saqlab qolish maqsadida bir qancha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari mamlakatimizda gender siyosatini yanada rivojlantirish maqsadida 2019 yil 2-sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni yurtimizda gender tenglikni taminlashga qaratilgan qonun hujjatidan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Oilani tinchligini ta‘minlash, nikoh masalalari, bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida quydagicha keltirilgan: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O‘zbekiston xalqining an‘anaviy qadriyatlariga nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi”¹.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak gender psixologiyasi rivojlanishi ayol va erkaklikka xos bo‘lgan belgi xususiyatlari bilan ajralib turishi, har ikki jinsning rollarini turlicha ekanligi, ularning xulq-atvorida o‘ziga xoslik, faoliyatidagi yondashuvning turlichaligi bilan ajralib turishini ko‘rishimiz mumkin. Misol tariqasida ayollarda rashk, hissiy holatining yuqoriligi, kayfiyati juda ham o‘zgarib turishi, emotsiyaga boyligi, ovoz va mimikada emotsiyani aks etishi bilan ajralib tursa, erkaklarda diqqat jamlanganligi iroda kuchining yuqoriligi, muloqot jarayonida qisqa faoliyat olib borish bilan ajralib turishini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Э.Гидденс Социология. – Т. «Шарқ». 2002., 185-с.
2. Ahmedov Botirjon Ravshanovich “O‘zbek tilida gender tadqiqi”.Andijon-20126-b.<https://fayllar.org/magistr-darajasini-olish-uchun-tayyorlangan-dissertatsiya-ilm.htm>
3. Здравомыслова О. «Гендерные исследования как опыт публичной социологии в России» (ru). Полит.Ру (24-sentabr 2009-yil). 26-aprel 2016-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 9-mart 2016-yil.
4. 30.04.2023. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145#-6445695>

¹ 30.04.2023. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145#-6445695>